

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sharipov Jaxongir Galiyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha boshlang'ich yo'nalishi stajyor o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyati va zaruriyati, mazmuni va mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan.

Annotatsiya: В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование речевой культуры у студентов, а также отражается значение и необходимость, содержание и сущность, а также конкретные характеристики факторов, влияющих на формирование речевой культуры у студентов.

Annotatsiya: This article examines the factors influencing the formation of speech culture among students, and also reflects the meaning and necessity, content and essence, as well as specific characteristics of the factors influencing the formation of speech culture among students.

Tayanch so'zlar: Ta'lim, tarbiya, talaba-yoshlar, nutq, qobiliyat, ijodkorlik, muloqot, kognitivlik, komunikativlik, xotira, diqqat, dunyoqarash, salomatlik, sog'lom turmush tarsi, ma'naviy-ahloqiy barkamollik, shaxs, yetuk mutaxassis, ma'rifat madaniyat.

Ключевые слова: Образование, обучение, студенты, молодежь, речь, способности, творчество, общение, познавательные, коммуникативные, память, внимание, мировоззрение, здоровье, здоровый образ жизни, духовно-нравственная целостность, личность, зрелый специалист, просвещенная культура.

Key words: Education, training, students, youth, speech, ability, creativity, communication, cognitive, communicative, memory, attention, outlook, health, healthy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

lifestyle, spiritual and moral integrity, personality, mature specialist, enlightened culture

O‘sib kenlayotgan bola shaxsining madaniyati uning axloqi, odobi, xulqi, insoniylik sifat va fazilatlari bilan belgilanadi. Bolada shakllanadigan nutq madaniyati madaniy, aqliy, xuquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi va tarkib topadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida bola shaxsining madaniyatlilik darajasi va ko‘rsatkichlari hamda ulardagi shaxsiy sifat va fazilatlarni kamol topishiga, kelajakda yetuk inson sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga imkon beradi. Demak, bola shaxsida madaniyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. U egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar ta‘sirida ro‘yobga chiqadi. Madaniyat - jamiyatning muayyan a‘zosi ya’ni bola shaxsining turli faoliyati (o‘quv, o‘yin, mehnat) jarayonida to‘plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi sanaladi.

Ijodkor pedagog bola shaxsining nutq madaniyatini shakllantirishda orttirilgan boy tajribalar bilan bir qatorda xorij tajribalaridan ham kengroq foydalanishga e‘tibor qaratishi maqsadga muvoffiq sanaladi. Bunda tarbiyachi - pedagogning tashabbuskorligi, kreativligi, kamunikativligi, kognitivligi va reflektiv yondashishi natijasida bola shaxsi ajdodlar tarixi va madaniyati, adabiyoti, san’ati, an’analari va urf-odatlar haqida chuqur bilim egallaydi. Madaniyatlararo kompetensiyalarni o‘rganish orqali talabalarning davlatlararo madaniy merosiga bo‘lgan qiziqishi va salohiyati oshadi. Til - aloqa vositasi bo‘lsa, nutq - aloqa shaklidir. Inson hayotida har ikkisinin ham o‘rni beqiyosdir. Nutq shaxslararo muloqotni ta‘minlovchi vositadir. Inson dunyoga kelibdiki, atrof-muhitda u bilan birga bo‘lgan insonlar bilan muloqot jarayonida bo‘ladi. Aslini olganda bu muloqotning poydevori ona qornida shakllanadi. Bola ona qornida 3 oylik bo‘lganida uning yuragi ura boshlaydi. Aynan shu davrda bola onaning psixologik holatini his qiladi hamda tovushlarni eshitadi. Bu davrda onaning bolasi bilan muloqot qilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shaxs tarbiyasining negizi ham onaning homiladorlik davriga borib taqaladi. Bu holat olimlar tomonidan ham o‘z isbotini topgan. Shu mavzudagi - 193 - turli rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Rivoyat qilishlaricha , bir donishmandning oldiga 6 oylik bolani tarbiyalab bering, deb olib borishadi. Shunda donishmand so‘raydi, “Bolangiz necha oylik bo‘ldi?” desa. “ Bolamiz 6 oylik bo‘ldi “ deb javob qaytarishadi. “ Bola tarbiyasiga 6 oy kechikibsizlar” deb javob beradi, donishmand. Shunday ekan, biz tarbiyani ona qornidan boshlashimiz

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

zarur bo‘lgani kabi, muloqotni ham shu davrdan boshlashimiz lozim. Bu muloqot jarayoni u dunyoga kelgach, alla orqali bevosita olib boriladi.

Bola tug‘ilgandan so‘ng, ona o‘z mehrini alla ohanglariga tushirib, bolasini allalaydi, ovutadi, butun dil isxorlarini eshilib sochilib kuylaydi. Bola alla orqali birinchi navbatda onasini muhabbatini, mehrini sezadi, tovushlar va kuy bilan tanishadi, orom olib yotadi. Ammo bugungi kunda dilni xira qiladigan bir holat borki, aksariyat yosh onalar bolalariga alla aytishmaydi, yoxud alla aytishni bilishmaydi, go‘yoki eskicha qarash qabig‘ida ish tutadi. Oqibatda buning salbiy ta‘siri yillar o‘tgach, namoyon bo‘ladi. Alla bolada nutqning tezroq vujudga kelishiga yordam beradi. Masalan, alla ko‘p eshitgan bolalar, beshikda yotgan paytida onasi aytgan alla tembriga mos ravishda tovushlarni chiqarib o‘zlariga-o‘zlari alla aytadilar. Bu o‘z-o‘zidan bolada tovushga taqlidchilikni vujudga keltirib, muloqotga kirishishiga imkon yaratadi. Psixolog olimlarning fikricha, bolani besh-oylikdan boshlab nutqni tushunishga o‘rgata boshlash kerak. Buning uchun bolaga, biror predmetni nomini bir necha marta aytib, takror takror eslatib ko‘rsatish kerak. Bu holat bir necha marotaba takrorlangach, keyingi safar shu predmetni ko‘zi bilan qidira boshlaydi. Bu narsa bolaning kattalar nutqiga tushuna boshlashini bildiradi. Bola nutqini shakllantirishda nafaqat muloqot qilish balki, ularda sensor motorikani shakllantirish ham, samarali natija beradi. Bolada yirik va mayda motorikalarni rivojlantirish, miya faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, nutqining rivojlanishiga, tafakkur, idrok, xotiraning shakllanishiga motivatsiya beradi. Bola nutqining noto‘g‘ri shakllanishi va buzilishining yana bir sababi, ikki tilda so‘zlashuv muhitidir. Ayrim ota-onalar farzandini ikki tilni baravar o‘rganishini xohlaydilar va o‘z ona tilida ravon so‘zlay olmagan bolalariga boshqa xorijiy tillarni o‘rgatishga harakat qilishadi. Natijada o‘z ona tilining grammatik qurilishini yaxshi bilmagan bola, o‘zga tilni ham mukammal o‘zlashtira olmaydi, bola nutqida ikki til qorishmasi yuzaga keladi. Na, u tilda na bu tilda aniq va ravon gapira olmaydi. Yoki ota-onalar va pedagog tarbiyachilar bola nutqini rivojlantirishda aniq rejali yondashishi kerak bo‘ladi.

Jadidchi olimlarda Mahmudxo‘ja Behbudiyning shunday so‘zlari bor: “ Avval biz musulmon bo‘laylik, o‘z o‘zbek tilimizni bilaylik, ana undan keyin ikkita emas, to‘rtta tilni o‘rganaylik.” Bu til o‘rganishga nisbatan sharqona qarashning namunasi bo‘lsa, g‘arbda ham til o‘rganishga nisbatan bir qancha fikrlar mavjud.

Y.I. Tixeyeva o‘zining ilmiy qarashlarida, bolalarni o‘qitishda dastlab o‘z ona tilisini o‘rgatish, uni mukammal o‘zlashtirishini maqsadga muvoffiq deb hisoblaydi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda, Maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda oila hamkorligi nihoyatda muhimdir. Bunda tarbiyachi-pedagog bolalarning ota-onasi bilan muloqotda bo'lishi kerak. Pedagog bolaning psixologik va fizologik holatini hisobga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishi lozim. O'z-o'zidan buni qanday amalga oshirish mumkin degan savol tug'iladi. Avvalambor, tarbiyachi bola bilan - 194 - do'stona munosabatda bo'lishi, uning ehtiyoji nimada ekanligini bilishi kerak. Bolani psixologiyasi va fizologiyasini o'rgangach, muammoning yechimini ham shunga qarab izlaydi. Keyingi bosqichda, metodlardan foydalangan holda, bolaning nutqidagi nuqsonini yo'qotishga kirishadi, uni so'zlashga o'rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lganligi sababli, o'yin davomida bolani to'g'ri talaffuzga tiniq gapirishga, gaplarni grammatik jihatdan to'g'ri qurishga o'rgatiladi. Bolalar nutqining buzilishiga sabab bo'ladigan yana bir omil bu- badiiy til va sheva o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Pedagogga qo'yilgan talablarga ko'ra, pedagog o'z nutqida, jargonlardan, shevadan foydalanishi qat'iy man etiladi. Shu sababli tarbiyachi adabiy tilda gapirishi maqsadga muvofiqdir. Biroq shu yerda yana bir ziddiyat kelib chiqadi. Bola pedagogning nutqi orqali badiiy tilda so'zlashishni o'rgandi, vaholanki oilada shevada muloqot qilish kuzatiladi. Bu bolada ikkilanishni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda pedagogning ham shevada so'zlashishi muammoga yechim bo'la olmaydi. Keyinchalik maktabga chiqqandan so'ng ham qiynaladi. Chunki, bola o'qiyotgan adabiyotlar badiiy tilda yozilgan bo'ladi. Bu holat yuz bermasligi uchun, bola bilan imkon qadar badiiy tilda gaplashish ko'cha so'zlardan foydalanmaslik muhim hisoblanadi. Bunda mas'uliyat ham ota-onaning ham tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Bolalarni badiiy tilga o'rgatishda ertaklar, she'rlar qo'shiqlardan foydalaniladi. Bu bolalarda badiiy til savodxonligini to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Ba'zan ko'z ilg'amas, arziyas bo'lib ko'ringan xatoliklar katta muammolarning ildiz otishiga imkoniyat yaratadi. Nutq deganda biz faqatgina ravon so'zlashni emas, balki chiroyli, emotsiyalar bilan so'zlashni inobatga olishimiz kerak. Shu bilan birgalikda, odob doirasida, madaniyatli muloqot qilishni ham o'rganishimiz va o'rgatishimiz lozim. Farzand tarbiyasi haqida so'z borganda, biz onani va pedagogni ma'sul qilib ko'rsatamiz, biroq bu borada otaning o'rnini ham beqiyosdir. Masalan, uzoqqa bormay, hayotiy misollardan oladigan bo'lsak, ayrim otalar o'g'il farzandlariga so'kinish so'zlarini o'rgatishadi va bola buni o'rganib takrorlaganda kerilib xursand ham bo'lib qo'yishadi. Lekin bu birinchidan, bola nutqida aytadigan doimiy so'zga aylanadi va o'z tengqurlari hamda o'zidan kattalarga ham qaytaradi. Ikkinchidan,

so‘kinish bilan muloqot qilish bola tarbiyasiga juda salbiy ta‘sir ko‘rsatib, keyinchalik bolada axloqiy me‘yorlarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Buning oldini olmaslik, qadriyatlarning toptalishiga hamda axloqsizlikning tup qo‘yib, palak yozishiga imkoniyat yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bespalko, V.P. O vozmojnostyax sistemnogo podxoda v pedagogike / V. P. Bespalko // Sovetskaya pedagogika, 1990. - № 7. - S. 59 – 62.
2. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas‘ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a‘zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 14. // Xalq so‘zi. 2016 yil 15 dekabr. – № 247. – 2 b.
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas‘ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a‘zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.

**Research Science and
Innovation House**